

BARKAMOL AVLOD TARBIYASI – MILLIY YUKSALISH GAROVI

Zokirov Farxod Baxovadin o'g'li

Farg'onan davlat universiteti harbiy ta'llim fakulteti 2-bosqich 22.124-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni bolaligidan ma'naviyatli qilib tarbiyalash dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu maqolada o'qituvchi shaxsining qanday ilg'or texnologiyalardan soydalanishi, o'quvchilarni kitobga oshno qilishi haqida shuningdek barkamol avlodni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash haqida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: barkamol avlod, ma'naviyat, qadriyat, tarbiya, axloqiy sifatlar, tafakkur, ma'rifat, bilim, komil inson, muloqot.

KIRISH

Mustaqillikka erishilgandan so'ng Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda barcha sohalarni qamrab olgan holda keng islohotlar amalga oshirildi hamda bu ishlar hozirgi davrda yangi bosqich va keng ko'lamda yanada izchil davom ettirilmoqda. U hoh davlat boshqaruv tuzilmasi bo'lsin, hoh sog'lijni saqlash, sport, ta'llim – qo'yingki, barcha jabhalarda ijobjiy natijasini bermoqda.

Ta'kidlash joiz, bugungi globallashuv davrida, dunyoda mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda doimo ogoh, sezgir va ma'naviy uyg'oq bo'lib yashashimiz, eng katta boyligimiz bo'lmish yurtimizdagи millatlararo ahillik, o'zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrash va mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlarimizning ma'noma'mazmunini tushunib etishimiz lozim.

O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa oilada va o'quv dargohlarida ta'llim hamda tarbiyaga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mazkur soha yechimiga qaratilgan qator qonun hujjatlari imzolanib, farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilinmoqda. Bular yurtimizda ma'nан etuk, dunyoqarashi teran, mustaqil fikrlovchi, e'tiqodi mustahkam, siyosiy-ma'naviy saviyasi hozirgi davr talablariga to'la javob beradigan barkamol avlodni kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

Inson mohiyati moddiyat va ma'naviyatning tutashuvida namoyon bo'ladi. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqqa xalqlari o'z tabiatini bilan yaratilgan. Zero, ma'naviyat va uni anglash masalalariga oqilona, konkret sharoitni hisobga olib yondashish – komil insonni tarbiyalashning yangi yo'llarini ochishda muhim ahamiyatga ega. Bedil aytganidek, me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, binoning boshi yulduzlarga etsa ham, u qiyshiq bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, jamiyatda inson o'rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Binobarin, ma'naviyat – ajdodlarni avlodlarga, tarihni bugunga, bugunni kelajakka bog'lovchi ko'priq. U otabobolarimizdan meros jamiki noyob fazilatlar, qadriyatlar va an'analarning majmui, qolaversa, ular to'plagan tarixiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o'zida mujassam etadi. "O'zbekiston yoshlar ittifoqi,—deb ta'kiddadi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev "Kamolot" YoIH IV qurultoyidagi nutqida,—jahon madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz merosiga hurmat, unga

munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, bu bebaho boylikni chuqur o'rganish va keng targ'ib etishga qaratilgan mazmundor, ta'sirchan loyihalarni amalga oshirishda tashabbus ko'rsatishi nur ustiga nur bo'lur edi".

Darhaqiqat, jahonga mashhur ajdodlarimiz — buyuk davlat arboblari, sarkarda Amir Temur, Bobur Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi nafaqat mardlik, adolatparvarlik, insonparvarlik, ilm-fan bobida o'rnak bo'lganlar, balki o'z askarlari, bo'lajak el-yurt himoyachilari tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Horazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Furqat singari bashariyat sivilizasiyasi va uning porloq kelajagiga beqiyos, katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkir ajdodlarimiz hamda din ilmida olamga dong taratgan Imom Buhoriy, Bahouddin Naqshband, Yassaviy kabi ulamolarimiz yoshlarga ma'naviy va jismoniy kamolot bo'yicha saboq berganlar.Yaqin o'tmishimizda yashab o'tgan mutafakkir ma'rifatchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Mahmud Behbudiy, Usmon Nosir va boshqa ko'pgina buyuk adiblarimizning asarlari yoshlar hayoti va tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ammo, sobiq sho'rolar davrida ulug' ajdodlarimizning bebaho madaniy-ma'naviy merosi halqimiz, yoshlarimiz ongiga o'zgacha talqin bilan taqdim etildi.Mustaqillik tufayli va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning odilona siyosati asosida millatimiz genofondini shakllantirish va barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo'lmish jismoniy tarbiya va sport tobora milliy istiqlol mafkurasining "strategik quroli"ga aylanib bormoqda. Yaqinda, 2017 yil 10 avgustda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalg etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi qarori yurtimizda barkamol avlodning ma'nani va jismonan kamol topishiga xizmat qilmoqda.Ma'lumki, ma'naviy-madaniy, ruhiy-axloqiy hislatlar va insoniy qadriyatlar avvalambor, bolalikdan shakllana boshlaydi. Bolalar erta go'daklikdan boshlab otaonalari,bobo-buvilari va boshqa oila a'zolarining yurish-turishlari, odob-ahloqlari, muomala munosabatlari, oilaviy urf-odatlari, rasm-rusumlar, udum va an'analariga qarab, ibrat olishga harakat qiladilar.Barkamol avlod ma'naviyatini shakllantiruvchi yagona manba esa tarbiyadir.

Ma'rifat va bilimni shakllantiruvchi manba — ta'lim, saboqdir. Binobarin "ta'lim va tarbiya" emas, aksincha, "tarbiya va ta'lim" deb aytish maqsadga muvofiqliqdir.

Insonni barkamol etib tarbiya-lashda badiiy asarlarning o'rni katta. Shuning uchun ham Prezidentimiz, ta'kidlaganidek, axborot-kommunikasiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobhonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobhonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko'tardi.Bugun ba'zi yoshlarimizning "ommayiv madaniyat" ta'sirida ma'naviy dunyoqarashi tobora tubanlashib borayotir. Ho'sh, unga qarshi kurashda qanday chora-tadbirlarni ko'rish

lozim, degan savol tug'iladi. Buning yechimini topish uchun, fikrimizcha, ta'lim-tarbiya tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish kerak. Ular orasida bizningcha eng muhim ahamiyat kasb etadiganlari qatoriga quyidagilar kirdi:

□ mafkuraviy ishlarni mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug‘ va erkin hayot sari olg‘a yurishga yo‘naltirish;

□ yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi kabi yuksak tushunchalar bilan birga milliy g‘oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik kabi tamoyillarning ma‘no-mohiyatini ma‘naviy-ma‘rifiy, ta‘lim-tarbiya ishlarining markaziga qo‘yish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish;

□ yoshlarni ona -Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

□ ma‘naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga hurmatehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirish;

□ yurtdoshlarimiz, ayniqsa yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida har taraflama va haqiqiy tasavvurlarni shakllantirish kabiladir.

Xalqimiz, birinchi galda, yoshlarni erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zlaydigan mafkuraviy oyaviy hurujlardan himoya qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Ma'lumki, kelajagi buyuk davlat barpo etish avlodlarga ozod va obod Vatanni meros qoldirish borasidagi olijanob ishlar taqdiri, oxir-oqibatda, yoshlarning ilm-fan yutuqlari va zamonaviy kasblarni nechog‘lik mukammal egallashiga bogiiq. Binobarin, barkamol avlodni tarbiyalash O‘zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning eng muhim shartidir.

Shuning uchun bugun yurtimizdata lim sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Bu islohotlar Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Bungao‘xshash dasturjahondagi birorbirmamlakatdayo‘q. Shuning uchun ham unga butun dunyoda qiziqish katta. Milliy dasturning toiiq amalga oshinlishi yigit va qizlarning kasbiy, iqtisodiy va ma‘naviy jihatdan tezroq mustaqil boiib, hayotdan o‘z o‘rnini topishiga imkon yaratadi.

Madaniy qadriyatlar - zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish asosiy vazifamizdir. Buning uchun av-valo o‘zligimizni yanada chuqurroq anglashimiz, milliy istiqlol g‘oyasi tush-uncha va tamoy illarini xalqmizning, ayniqsa, yoshlarning qalbiga singdi-rish talab etiladi.

Milliy istiqlol g‘oyasi yurtdoshlarimizni ma‘naviy qadriyatlarm to‘g‘ri baholay bilishga da‘vat etadi. Buning uchun milliy qadriyatlarga, jumladan, madaniy merosga ilmiy asosda to‘g‘ri yondashishning asosiy tamoyillaridan kelib chiqadigan mezonlarga arnal qilish nazarda tutiladi. Bu mezonlar insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchillik vataraqqiyparvarlikdan iborat. Milliy istiqlol g‘oyasi yurtdoshlarimizni ma‘naviy qadriyatlarni to‘g‘ri baholay bilishga da‘vat etadi. Buning uchun milliy qadriyatlarga, jumladan, madaniy merosga ilmiy asosda to‘g‘ri yondashishning asosiy tamoyillaridan kelib chiqadigan mezonlarga amal qilish nazarda tutiladi. Bu mezonlar insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchillik vataraqqiyparvarlikdan iborat bo‘lib, ularning har birida milliylik va umuminsoniylik tamoyillari mujassamlashgan. Bu mezonlarga,

shuningdek, tarixiylik ham xos. Ular jamiyat oldida turgan yangi vazifalardan kelib chiqilgan holda boyib, takomillashib boradi. Milliy qadriyatlarga baho berilar ekan, ularning milliy g'oyaga nechogiiq mos ekani nazarda tutiladi.

Mamlakatimiz istiqlolini, u bilan bog'liq tarixiy sana va voqeа-hodisalarining mohiyatini chuqur anglash va qadrlash, har tomonlama munosib nishonlash ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizda alohida o'rin tutadi. Shu sababdan mahalla yoshlarini sportga, bilim va zakovatga qiziqishini orttirish, ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli va maroqli o'tkazish, yosh avlodni Vatan tuyg'usi bilan o'sishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqidir. Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Ma'lumki, Prezidentimiz ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-

Ta'lim-tarbiya haqida so'z ketganda, Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", degan chuqur ma'noli fikri yodimizga tushaveradi. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zлari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtida ham shunchalik, balki undan ham ko'proq dolzarb ahamiyatga ega. Ma'lumki, tarbiya o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o'zida butun ijobjiy, olıyanob fazilatlarni birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Tarbiyasi og'ir, ma'naviyati qashshoq yoki ma'naviyatdan mahrum bo'lgan odamdan biror ezgulik kutish mumkin emas. Chunki u yaxshilik va ezgulik haqida umuman o'ylamaydi. Atrofga va hatto ota-onasi, qarindosh-urug'ları taqdiriga ham befarq, loqayd holda yashaydi. Tarbiyali, ma'naviyatlari inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, shuningdek, kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Zotan, bugun xalqimizning "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" buyuk maqsadiga erishuvida ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Mazkur masala o'ta dolzarb bo'lganligidan barcha zamonlar donishlari yoshlar tarbiyasi haqida bosh qotirib kelishgan. Masalan, buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zлari bor. Zardushtiylik uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal". Shu uchallasiga rioya qilgan odam kamolotga yetgan hisoblangan. Imom Buxoriy bu xususda yana-da yorqinroq so'z aytgan: "Bolaning tabiatini rivojlanishga moyil bo'ladi, uni qanday g'oyalar bilan to'ldirish ota-ona va ustozga bog'liq".

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U "Insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim faqat

so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir”, deya ta’kidlaydi. Olim, o‘z navbatida, ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Shuning uchun ushbu g‘oyalardan jamiyatning tarbiyaviyta’lim salohiyatini mustahkamlashda, ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilashda foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Navoiy inson qadr-qimmati uning mol-mulki, zeb-ziyнати, mansabi yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma’naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari, undan elga qanchalik naf tegishi bilan belgilanishini ko‘p marta takrorlagan. Shoир she’rlaridan birida:

Tut bargichalik qimmati yo‘qmi?

Ipak qurtichalik himmating yo‘qmi?

— deya insonni o‘ylashga, o‘ylaganda ham o‘z hayotidan kelib chiqib xulosa qilishga chorlaydi. Shu ikki satrda insonning dunyoga kelishidan tortib, bu yorug‘ olamda yashashning tub mohiyat ochib berilgan.

Shoирning quyidagi so‘zlari ham tahsinga sazovor: “Kishilarning so‘z bilan naf yetkazish qo‘lidan kelmasa, loaqal ko‘nglidagi andishasi yaxshi bo‘lishi kerak. Ko‘ngli odamlarning xursandligidan xursand bo‘lishi lozim. Kimning xalq g‘amidan g‘ami bo‘lmasa, haqiqiy odam bo‘lsang, uni odam dema”. Bu fikrlarning tub negizida tarbiya yotganligini anglab olish qiyin emas. Zero, Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, “Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” asari sharqona tarbiyaning noyob qo‘llanmasi sifatida bugungi kunda ham o‘zining qadri va ahamiyatini yo‘qotgan emas. Biz “Tarbiya” fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebahbo asarlardan samarali foydalanishimiz zarur”. Demak, anglashiladiki, biz “Tarbiya” fanini yaratishda uzoq-yaqin o‘tmishimizda yashab o‘tgan ulug‘ zotlar merosidan, qolaversa, umuminsoniy qadriyatlardan unumli foydalanishimiz kerak bo‘ladi. Ana shular asosida yaratilgan yangi fan farzandlarimiz tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz. Barkamol avlodni tarbiyalash orqali esa oldimizga qo‘ygan ulkan maqsadga erishamiz — mamlakatimizda uchinchi Uyg‘onish ko‘z ochadi.

Barkamol avlod - Vatanning baxti.

Ulug‘ davlatlarning, ulug‘ kashfiyotlarning ijodkori komil insondir. Komillikka esa inson tarbiya orqali erishadi.

Xalqimiz qadim-qadimdan tarbiyaga, ilmu hunarga alohida etibor berib keladi. Ota-onalik va farzandlik rutbalari hamisha aziz deb belgilangan. Ota-onsa farzand uchun bir umrlik ibrat va bir umrlik muallimdir. Shuning uchun ham xalqimiz yosh avlod tarbiysi va taqdiriga masul zotlar – tarbiyachilar, muallimlar, tibbiyot xodimlarini goyat qadrlaydi. Ular farzandlarimiz ruhiga ona xalqimizga xos asl fazilatlarni, soglom turmush va soglom fikrlash tarzini singdiradilar. Bunday kop qirrali tarbiya millatimiz irsiyatiga xos yuksak xususiyatlarning yuzaga chiqishi uchun asosiy omildir. Azaldan, oglini uylantirayotgan yoki qizini chiqarayotgan ota-onsa quda-qudagayining etti pushtini sorab-surishtiradi. Amir Temur hazratlari ogillari, nabiralari va yaqinlarini uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa shaxsan o’zi e’tibor berganini va ayni shu yumushni davlat ishlari bilan teng korganini etirof etadi. Bu katta hayotiy falsafaning, barqaror

ahloqiy etiqodning, donolikning belgisidir. Ta`lim va tarbiya soliqni saqlash tizimi ana shunday hayotiy falsafa negizida rivojlanishi ayni muddaodir. Har bir xalq, har bir avlodning barkamollik darajasi pirovard natijada shu xalq istiqbolini, taraqqiyotini va taqdirlini hal etadi.

Ma`naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash – faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umumidaylat ahamiyatiga molik masala – kopmillatli Vatanimizda tugilib osgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu murod-maqsaddir. Bu nuqtada milliy va umuminsoniy qadryatlar, boy manaviy merosimizning eng yaxshi anomalari hamda shakllanib kelayotgan yangi udumlar birlashadi, tarbiyaning qudratli omiliga aylanadi. Xalqimiz irsiyatini boyitish, manaviy va jismoniy soglom avlodni tarbiyalash jarayonida oila, davlat va jamiyatning mushtarak muddaosi bolmish komil inson shaxsi – XXI asr odami shakllanadi. Ishonchimiz komilki, Vatanning baxti bolmish barkamol avlod ilm, tarbiya, mehnat orqali shakllanadi. Ozbekistonning buyuk kelajagi ilm, tarbiya, mehnat orqali royobga chiqadi.

Albatta, mustaqillik yillarda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish yolda tengsiz ezgu ishlar amalga oshirildi. Komil inson – soglom odam mezonidir, fazilatidir. Fazilat esa, Aristotel iborasi bilan aystsak, ayni paytda ham kamchilikning, ham haddan tashqarililikning ziddidir. Yani kamolot mujassamidir. Soglom odam tushunchasi ham tarixiy bolib, oz davrining sifat belgilarini aks ettiradi. Soglom odam qanchalik qayguga botgan yoki sevinchidan olamga sigmay turgan bolsa ham, dunyoni togri idrok eta biladi, yonginasida ochilib turgan gulni kora oladi, uning tanasiga oraglan zarpechakni yulib tashlashga fahmi yetadi. Demak, haq gapni aytishga, haq ishni qilishga qodir hisoblanadi. Binobarin tugma axloqiy asoslar bilan mustahkamlangan aqlu zakovatning – intellektning, odamiy va demokratik mafkuraning, teran insoniy va haqqoniy dunyoqarashning maqomi bilinib turadi. Bugun biz ozimizni buyuk Sohibqiron avlodlari deb gururlanar ekanmiz, bobomiz meros qoldirgan saboqlarga amal qilib uzoq yillik asoratdan keyin mustaqillik yoliga chiqqan davlatimizni saqlash va uning ravnaqi uchun mashaqqat chekish har birimizning farzandlik burchimizdir. Bobomiz vasiyat qilganlaridek, millatning dardlariga darmon bolmoq vazifamizdir.

Hazrat Sohibqirondan meros qolgan saboqlardan biri soglom nasl va komil inson bilan bogliq ogitlardir. Zero, bobokalonimizning ozi tarixchilardan biri takidlaganidek, “Yoshligidayoq aqlining tiniqligi va jasurligi bilan ajralib turardi.” Aqliy tiniqlik va jasurlik – soglomlik mezoni emasmi?!

Oila qurish inson hayotidagi eng masuliyatli ish. Amir Temurning bu sohadagi siyosati tadbirilarini Klavixo quyidagicha izhlaydi: “Temur atrofidagi yolgiz kishilarni ozi bosh bolib uylantirib qoyer va ularning turmushi izga tushib ketishi uchun sharoit hozirlar edi. Nikoh, oila masalalariga bosh qoshish masuliyatini his etib, oz aqlu farosati, didiga ishongan holda Amir Temur bu nozik ishga aralashardi.”

Yurtimizda qadim-qadimdan oilalar serfarzand bolishgan. Shu sababli Amir Temur hazratlari Chigatoyliklarni soliq tolashdan ozod qilgan va chorvalarini istagan yerlerida boqishga ruxsat bergen. Dehqonlarga yer bergen va uch yilgacha soliqdan ozod qilishga farmon bergen.

Amir Temur oz davrining marifatli kishisi, otmishning manaviy saboqlaridan yaxshi xabardor inson sifatida soglomlik faqat jismoniy kuch-quvvat emas, balki oljanob insoniy fazilatlar uygunligiga erishmoq ekanligini ham yaxshi anglagan. Muhammad Taragay oz farzandini mardlik va farosatlik, qattiq qollik va mehr-oqibat ruhida voyaga etkazdi. Agar Amir

Temur buyuk sultanatga asos solgan bolsa, bu sharafga mana shu yuksak tarbiya oqibatida erishgan.

Sohibqiron farzandlarida uch xislar mujassam bolishni istardi. Eng avvalo, insonparvarlik, song mushohadalik va nihoyat, oqibatlik – bosiqlik. Insonparvar odamgina saxiy bolishi mumkin. Mushohazali, bosiq odamgina jangu jadalda xatoga yol qoymaslikka, ulkan sultanatni boshqarishga qodir. Kimki jasur bolsa-yu, insonparvar bolmasa, jismonan baquvvat bolsa-yu mushohadalik bolmasa, dono bolsa-yu bosiqlik qilmasa, unday odam komil inson bololmaydi, unday odam boshqalarini ham, oziniyam halok etadi. Kimki raqibi bilan olishgandayam insonparvarlikni unutmasa, u albatta yengadi. “Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, oylab ish qilish qilich kuchudan on karra foydaliroqdir”, deb takidlaydi ulug Sohibqiron.

“Mening farzandlarim tantiq bolmasliklari kerak! - derdi Amir Temur. - Tantiqlik irodasiklikni poydo qilgay. Farzanlarimni erkelaydigan yer kurash maydoni bolsin. Argumoq ila qilich ularning jonajon dosti, mardlik ularga ustoz bolsin.”

Sohibqiron “qatiylik, sabr-chidamlilik, sogligu sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat” sohibi bo‘lgan inson har qanday mashaqqatli ishni amalga oshirishga qodir, deb takidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, barkamol avlodni tarbiyalashda – insonning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog‘ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchalarga ega bo‘lmog‘i kerak. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, yurtimizda milliy madaniyatni yana-da rivojlantirish yo‘lida barchamiz birdek mas’ul bo‘lishimiz lozim.

Davlatimiz rahbari aytganlaridek "Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?" degan savollarga javob beradigan, shunday e’tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi. Shavkat Mirziyoyev".

Zero,Ma’naviy barkamol yoshlar – kelajagimiz poydevori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."Barkaml avlod orzusi" kitobi.I.Karimov.
- 2.Barkamol avlod- Elektron kutubxona- Respublika bolalar kutubxonasi
- 3.[https://xs.uz>post<tarbiya-orqali mamlakatimizda uchinchi uyg‘onish ko‘z ochadi-XS.UZ](https://xs.uz/post/tarbiya-orqali-mamlakatimizda-uchinchchi-uyg'onish-ko'z-ochadi-XS.UZ)
- 4.Barkamol avlod-ZiyoNET